




QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI STATISTIKA BOSHQARMASI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2024- YIL YANVAR-NOYABR



DASTLABKI MA'LUMOT



**Tel.: 61-222-75-87
www.qrstat.uz**

Qoraqalpog'iston Respublikasi sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat bu – xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasi korxonalari tomonidan 20665,1 mlrd so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 106,6 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.




Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 17311,6 mlrd so'mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 83,8 % ni tashkil etdi.



Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, tog'-konsanoati va ochiq konlarni ishlash sanoatining – 31,9 % ga, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 3,7 % ga hamda elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning – 24,2 % ga o'sishi kuzatildi.

Shuningdek, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – 19,7 % ga kamayish kuzatildi.





Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2024- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 340,4 mlrd so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 1,6 % ga to'g'ri keldi.

*Sanoat ishlab chiqarishi hajmi,
yanvar-noyabr, mlrd so'mda*



*Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashning
jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*


*Sanoat ishlab chiqarishi FHI,
yanvar-noyabr, % da*




2 294,9

**Yanvar-noyabr oylarida yirik sanoat korxonalari tomonidan
ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish**
(o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan % da*)


Ohaktosh




Qattiq holdagi tuz va toza natriy xlorid



Tabiiy gaz



Gaz kondensati



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

**Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi
sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi**

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-noyabr*	2024- yil yanvar-noyabr
Ohaktosh, ming t.	160,9	138,1
Gaz kondensati, ming t.	58,8	46,6
Tabiiy gaz, mln. kub.m	916,0	794,1


* 2023-yil yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Ishlab chiqaradigan sanoat


Ishlab chiqaradigan sanoat bu – tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan-bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17311,6 mlrd so’mni yoki jami sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 83,8 % ni tashkil etdi.


*Sanoat ishlab chiqarishi hajmi,
yanvar-noyabr, trln so’mda*




*Ishlab chiqaradigan sanoatning jami sanoat
ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*




*Sanoat ishlab chiqarishi FHI,
yanvar-noyabr, % da*



Yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2023- yilning yanvar-noyabr oylarida 0,04 %), o'rta-yuqori texnologiyali –40,1 % (51,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 9,2 % (6,1 %), quyi texnologiyali 50,6 % (42,2 %) ni tashkil etgan.




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 41,1 % (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 90,6 %), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 24,5 % (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 137,9 %) ga, oziq-ovqat, ichimliklar va tamaki mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 22,6 % (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,4 %) to'g'ri keldi.

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Yanvar-noyabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlar (o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yog'och va po'kak buyumlar, pohl va to'qish uchun materiallardan buyumlar, qog'oz va qog'oz mahsulotlari, mebellar ishlab chiqarish – 2,6 % (2023- yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 107,2 %) ni tashkil etdi.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

2024-yilning yanvar-noyabr oylarida Qoraqalpog'iston Respublikasida 906,4 ming tonna portlandsement (2023-yilning yanvar-noyabr oylariga nisbatan 2,2 marta ko'paygan), 5,4 ming tonna o'simliklardan olingan sharbat va ekstraktlar (71,3 % ga ko'paygan), 40,5 ming tonna paxta tolasi (36,0 % ga ko'paygan), 3138 ming litr aroq (4,3 % ga ko'paygan), 14,4 ming tonna kalava ip (10,7 % ga kamaygan), 5,5 ming tonna o'simlik yog'i (22,1 % ga kamaygan), 38,0 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (35,4 % ga kamaygan) hamda 55,9 ming m2 gazlamalar (95,7 % ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.


Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-noyabr*	2024- yil yanvar-noyabr
Aroq, ming litr 100 % li spirt	3008,3	3138,0
O'simlik yog'i, (tozalangan), tonna	7047,0	5490,8
Portlandsement, tonna	413138	906441
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	58859,3	38023,5
Paxta tolasi, tonna	29798,9	40533,1

* 2023-yil yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 40,1 % ni tashkil etib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 10,1 % ga kamaydi hamda ishlab chiqarish hajmi 6934,4 mlrd so'mni tashkil etgan.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish – minerallar asosida mahsulotlar ishlab chiqarishga tegishli bo'lgan ishlab chiqarish turlarini o'z ichiga olib, shisha va shishadan mahsulotlar, keramik buyumlar, polga o'rnatiladigan qoplamalar, kafel, cherepitsa, terrakota buyumlar, sement va xomashyodan tayyor mahsulotgacha ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 5,5 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 12,2 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 952,6 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 20,7 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 104,7 % va ishlab chiqarish hajmi 3575,7 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

Ichimliklar ishlab chiqarish – spirtsiz ichimliklar va mineral suvlarni ishlab chiqarishni, spirtli ichimliklarni ishlab chiqarishni, asosan fermentatsiya metodi orqali; pivo va vino, shuningdek, distillangan alkogol ichimliklar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,9 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 112,3 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 333,5 mlrd so‘mga to‘g‘ri keldi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 21,9 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 33,6 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 3790,0 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2024- yilning yanvar-noyabr oylarida kiyim ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,6 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 98,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 453,3 mlrd so'mga to'g'ri keldi.



Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish – rezina va plastikdan mahsulot ishlab chiqarishni, ishlab chiqarishda foydalanadigan xomashyo materiallarini o'z ichiga oladi. Lekin bu bo'limga ishlab chiqarishning barcha turlari va materiallari kiradi degani emas.


2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,0 % ni, fizik hajm indeksi 158,6 % ni tashkil qildi hamda ishlab chiqarish hajmida 172,3 mlrd so'm kuzatildi.



Mebel ishlab chiqarish

Mebel ishlab chiqarish – korxona hamda muassasalar, oshxona mebellarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.

2024- yilning yanvar-noyabr oylari yakunlariga ko'ra, ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi mebel ishlab chiqarishning ulushi 1,5 % ni, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 82,5 % ni tashkil etdi hamda ishlab chiqarish hajmi 257,1 mlrd so'm ekani kuzatildi.




Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash


Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiya-sini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2898,4 mlrd so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 14,0 % ini) tashkil etgan.


*Sanoat ishlab chiqarishi hajmi,
yanvar-noyabr, mlrd so'mda*



*Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni
konditsiyalashning jami sanoat ishlab chiqarishi
hajmidagi ulushi*



*Sanoat ishlab chiqarishi FHI,
yanvar-noyabr, % da*




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

<i>Sanoat mahsulotlari</i>	<i>2023- yil yanvar-noyabr*</i>	<i>2024- yil yanvar-noyabr</i>
Elektrenergiya, mln.kVt.s	4608,7	4614,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	33,3	34,9
Gazsimon yonilg'ini quvurlar orqali taqsimlash bo'yicha xizmatlar, mln so'm	104278,7	131347,0

* 2023-yil yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Elektrenergiya va issiqlik energiyasi ishlab chiqarish
(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

2024- yilning yanvar-noyabr oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektrenergiya ishlab chiqarish 100,1 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 104,7 % ni tashkil etdi.





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 114,7 mlrd so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % iga) to'g'ri keldi.

*Sanoat ishlab chiqarishi hajmi,
yanvar-noyabr, mlrd so'mda*



*Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi,
chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishning
jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi*

*Sanoat ishlab chiqarishi FHI,
yanvar-noyabr, % da*



min so'mda


Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi

Sanoat mahsulotlari	2023- yil yanvar-noyabr*	2024- yil yanvar-noyabr
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln so'm	8118,8	8450,5
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar mln so'm	62570,2	78732,1
Xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlar mln so'm	8686,3	12099,6

* 2023-yil yanvar-noyabr oylari uchun ishlab chiqarish xajmlari korxonalar tomonidan yillik balansga muvofiq aniqlik kiritilgan ma'lumotlar asosida shakllantirilgan

Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish va suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar
(o'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

O'tgan yilning mos davriga nisbatan suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha 25,8 % ga, xavfsiz chiqindilarni yig'ish bo'yicha xizmatlarda 39,3 % ga hamda oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlarda 4,1 % ga ko'paydi.





* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Kichik biznes tadbirkorlik subyektlari tomonidan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 7337,8 mlrd so'mlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 35,5 % ni tashkil etdi. 2023- yilning yanvar-noyabr oylarida kichik biznes subyektlarining umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 27,0 % ni tashkil etgan.

Sanoat ishlab chiqarishi hajmi, yanvar-oktabr, mlrd so'mda



Kichik tadbirkorlik subyektlarining jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi

Jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi, yanvar-noyabr, % da

